

**OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILLARNI
O'RGATISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA CHET
TILLARIDAN KIRIB KELGAN HARBIY ATAMALARNI O'RGANISH**

*O'zbekiston Respublikasi Harbiy
xavfsizlik va mudofaa universitetining
Quruqlikdagi qo'shinlar instituti
Tillar kafedrasini mudiri p.f.f.d. (PhD),
dotsent **D.M. Raxmonqulova***

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy oliy o'quv yurtlarida chet tillarni, xususan, ingliz va fransuz tillarini o'rgatishda qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlar va yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish usullari bayon etiladi. Shuningdek, xalqaro xavfsizlik va diplomatik aloqalarda katta rol o'ynovchi fransuz tilidan kirib kelgan harbiy atamalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Harbiy ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar va xorijiy harbiy iboralarni samarali o'zlashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

В данной статье рассматриваются инновационные подходы к обучению иностранным языкам, в частности английскому и французскому, в высших военных учебных заведениях, возникающие проблемы и способы их преодоления. Особое внимание уделено значению изучения военных терминов французского происхождения, которые играют важную роль в международной безопасности и дипломатических связях. В статье также приведены рекомендации по использованию современных технологий в системе военного образования и эффективному освоению иностранных военных терминов.

This article discusses innovative approaches to teaching foreign languages, especially English and French, in military academies, as well as the challenges and solutions encountered. Special attention is given to the importance of French-origin military terms, which play a significant role in international security and diplomatic relations. The article provides recommendations on the use of modern technologies in the military education system and effective acquisition of foreign military terminology.

Kalit so'zlar. Harbiy ta'lim, chet tillar, fransuz terminologiyasi, innovatsion yondashuvlar, harbiy terminologiya, xalqaro xavfsizlik

Военное образование, иностранные языки, французская терминология, инновационные подходы, военная терминология, международная безопасность

Military education, foreign languages, French terminology, innovative approaches, military terminology, international security

Xalqaro harbiy hamkorlik va chet mamlakatlar bilan mudofaa sohasidagi aloqalar kuchayib borayotgan bir davrda harbiy ta'limda chet tillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ingliz va fransuz tillaridan kirib kelgan harbiy atamalar harbiy ta'lim sohasida keng qo'lladi. Ularni o'zlashtirish nafaqat zamonaviy harbiy texnologiyalardan foydalanishni osonlashtiradi, balki xalqaro operatsiyalar va mushtarak harbiy mashg'ulotlarda samaradorlikni oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, harbiy o'quv yurtlarida til o'rgatish jarayoniga innovatsion yondashuvlar kiritishning ahamiyati katta

Chet tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar va tilshunoslikda harbiy atamalar o'qitilishida samarali yondashuvlar

Bugungi kunda til o'rgatish jarayonida ko'plab yangi texnologiyalar va o'quv metodlari qo'llanilmoqda. Harbiy oliy o'quv yurtlarida chet tillarni samarali o'rgatish uchun quyidagi innovatsion usullardan foydalanilmoqda:

Onlayn resurslar. Zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalarga onlayn dars materiallari orqali til o'rganish imkoniyati yaratilmoqda. Bu usul talabalarning mustaqil ravishda va darsdan tashqari vaqtlarida ham chet tillarini o'zlashtirishlarini qo'llab-quvvatlaydi (Smith, 2020). Online materiallardan foydalanishning eng afzal tomoni shundaki til o'rganuvchi real vaqt davomida o'z natijalarini ,xató va kamchiliklarini jarayondan ayrilmagan holatda bilib olish imkoniga ega bo'ladi .

Audio va video materiallardan foydalanish. Real hayotda uchraydigan harbiy suhbatlar va atamalardan iborat audio va video materiallarni til o'rgatish jarayonida qo'llanishi til o'rganuvchilarda til o'rganish samaradorligini oshiradi. Bunday materiallar tilni ko'proq tadbiiq etish eshitish va gapirish kompetetsiyalarni shakllantirishda asosiy o'Vrin egallaydi. (Jones, 2019).

Virtual reallik va simulyatsiyalar. Virtual muhitlarda mashg'ulotlar o'tkazish o'quvchilarga og'ir yoki favqulodda vaziyatlarni boshdan kechirish imkonini beradi. Bu usul orqali harbiy terminologiyani real holatlarda qo'llash ko'nikmasi shakllanadi Bugungi kunda aynan shu usul juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar natijasida eng samarali usullardan biri sifatida etirof etilmoqda (Anderson va Brown, 2021).

Harbiy terminologiyani o'zlashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish. Harbiy terminologiyani, xususan o'zbek tiliga ingliz ,fransuz tilidan kirib kelgan atamalarni o'rganishda bir qator qiyinchiliklar kuzatiladi: Quyida bazi bir misollar yordamida ushbu holatlarni bartaraf etishi mumkin bo'lgan yechimlarni keltirib o'tganmiz.

Tilga xos maxsus atamalar. Harbiy sohada foydalaniladigan terminologiya ko'p hollarda maxsus ma'no va kontekstga ega bo'lganligi sababli, uni tarjima qilishda aniq ekvivalent topish qiyin kechadi (Davronov, 2021).

Fonetik va grammatik farqlar. Chet tillaridan olingan atamalar fonetik va grammatik jihatdan mahalliy til bilan farq qilganligi sababli ularni o'rganuvchilar

talaffuz qilishda qiyinchilikka duch keladi (Karimov, 2020). Bu farqlar asosan til o'rganuvchiga begona bo'lgan tillardan kirib kelgan so'zlarda yaqqol ko'zga tashlanishi mumkin. Quyida fransuz tilidan harbiy terminologiyaga kirib kelgan so'zlarni misol qilishimiz mumkin

General (Général) asli kelib chiqishi lotin tilidagi *generalem* umumiy", "boshqaruvchi" degan ma'noni anglatadi. **Serjant (Sergent)** – "xizmat qiluvchi" ma'nosini bildiradi. Quyi martabali harbiy xizmatchi (Xodjayev, 2019) **Kolonna (Colonne)** – Harbiy safning to'g'ri va tartibli yurishi (Davronov, 2021). **Patrul (Patrouille)** – Kelib chiqishi: O'rta asr fransuz tilidagi "*patrouiller*" so'zidan kelib chiqqan, u esa "qo'riqlash", "aylanib yurish" ma'nosini bildiradi. (Karimov, 2020).

Garde – Gvardiya. Kelib chiqishi: O'rta asr fransuzchasidagi "garder" fe'lidan olingan bo'lib, "qo'riqlamoq" yoki "himoya qilmoq" ma'nosini anglatadi. **Batalyon (Bataillon)** asl kelib chiqishi fransuzcha "*battaglione*" *urush* degan manoni anglatadi. Yuqorida keltirib o'tilgan misollarning deyarli hammasi aslida lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib muomala jarayonida fransuz tilida shakllangan va boshqa tillarga fransuz tilida ishlatilgan varianti holida kirgazilganligi sababli fransuz tilidan kirgan so'zlar sifatida qaraladi.

Yuqorida bir qator metodlarni sanab o'tgan edik. Ushbu metodlar orasida alohida to'xtalib o'tishimiz kerak bo'lgan metod bu interaktiv dars metodlari hisoblanadi. Harbiy o'quv yurtlarida interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilar uchun chet tillaridan kirgan harbiy atamalarni tez va oson o'zlashtirish imkonini beradi (Karimov, 2020). Bu metod til o'rganuvchilar uchun bir qancha ustunlik tomonlari mavjud bo'lib quyida bir nechtasini misol tariqasida keltirib o'tganmiz.

1.Faol ishtirok: Interaktiv metodlar o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qiladi. Bunga muhokamalar, guruhda ishlash va o'yinlar orqali erishiladi. Bunda o'rganuvchilar passiv tinglovchilar emas, balki faol ishtirokchilarga aylanadi, bu esa o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

2.Real vaziyatlarda qo'llash imkoniyati: Interaktiv metodlar real hayotiy vaziyatlarni taqlid qiluvchi mashg'ulotlar va simulyatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarga tilni turli holatlarda qo'llash imkonini beradi, natijada ular o'z til ko'nikmalarini mustahkamlaydi va haqiqiy vaziyatlarda ishlatishga tayyor bo'ladi.

3.Ko'p kanalli o'rganish: Interaktiv metodlar o'rganish jarayonida bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi organlari orqali (eshitish, ko'rish, kinestetik) ta'sir etadi. Masalan, audio va video materiallar, multimediya resurslari yordamida til o'rganish jarayoniga qo'shimcha sezgirlik kiritiladi, bu esa o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi.

4.Mustaqil fikrlash va refleksiya: O'quvchilarga mustaqil fikrlash imkonini beruvchi interaktiv usullar, masalan, rol o'yinlar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi metodlar til o'rganuvchilarning mustaqil mulohaza yuritish qobiliyatini

rivojlantiradi. Bu usullar orqali o'quvchilar muloqot jarayonida fikrlarini ochiq ifodalashni o'rganadilar.

5.Motivatsiya va qiziqishni oshiradi: Interaktiv metodlar qiziqarli o'quv jarayonini ta'minlaydi, bu esa o'rganuvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Qiziqarli va o'yin-usullari o'z ichiga olgan darslar o'rganuvchilarda til o'rganishga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi.

Xulosa. Harbiy oliy o'quv yurtlarida chet tillarni o'rganish nafaqat zamonaviy harbiy ta'limning, balki xalqaro hamkorlikning ajralmas qismidir. Bugungi kunda global xavfsizlik, diplomatik aloqalar va harbiy operatsiyalar sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun chet tillarini bilish zaruriyati oshib bormoqda. Ayniqsa, ingliz va fransuz tillari, o'zining boy terminologiyasi bilan, harbiy sohada muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada muhokama qilingan innovatsion yondashuvlar, masalan, onlayn resurslar, audio va video materiallar, virtual reallik va simulyatsiyalar, harbiy ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlar yordamida harbiy ta'lim olish jarayonida chet tillarini o'rganish faqatgina bilimlarni oshirish emas, balki o'quvchilarning muloqot qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bu yondashuvlar o'quvchilarga harbiy terminologiyani haqiqiy hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini yaratadi, ularning o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va motivatsion qiladi. Interaktiv metodlar, guruhda ishlash, muhokamalar va simulyatsiyalar orqali o'quvchilar mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, harbiy oliy o'quv yurtlarida chet tillarni o'rgatish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni kiritish, nafaqat talabalarning professional tayyorgarligini oshirish, balki ularni zamonaviy harbiy va diplomatik muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Harbiy ta'lim tizimida innovatsion usullarni joriy etish orqali xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda yangi imkoniyatlar yaratish mumkin. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar, kelajakda harbiy tayyorgarlik va xavfsizlik sohasida yanada sifatli o'qitish va o'rganishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Anderson, M., Brown, T. (2021). Innovative Language Teaching Methods in Military Academies. London: Routledge.
2. Brown, T. (2019). Challenges of Military Terminology in Foreign Language Instruction. New York: Cambridge University Press.
3. Davronov, A. (2021). Harbiy terminologiyani o'rganish qiyinchiliklari. Harbiy Ta'lim Jurnali, (1), 25-30.
4. Jones, P. (2019). Effective Use of Audio-Visuals in Military Language Training. Journal of Applied Linguistics, 5(2), 52-61.
5. Karimov, B. (2020). Harbiy atamalarning o'zlashtirilishi va amaliy qo'llanilishi. O'zbekiston Harbiy Akademiyasi Ilmiy Maqolalar To'plami, 8(3),